lab chiqilishi zarur. Refleksiv yozuvlarni muntazam qo‘llash. Talabalar muntazam refleksiv kundaliklar, esse va tahliliy yozuvlar orqali o‘z fikrlarini chuqur tahlil qilishlari kerak. Peer-feedback mexanizmini joriy etish. Tengdoshlar bilan baholash talabalar muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi va diagnostik natijalarni boyitadi. Integratsiyalangan e-portfolio. Ba’zi hollarda e-portfolio platformalari talabalar diagnostik test, audio-video tahlil va refleksiv yozuvlarni bir joyda saqlash imkonini beradi [8].

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, diagnostik metod orqali bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarining nutqiy-lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish muhim vosita hisoblanadi. U nafaqat baholash, balki talabalarni mustaqil tahlil qilishga, refleksiv yozuv va peer-feedback orqali o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatadi. Shuningdek, diagnostik metod pedagogga individual yondashuvni shakllantirish, darslarni moslashtirish va ta’lim sifat samarali oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Zhang C., Schießl J., Plößl L., Hofmann F., Gläser-Zikuda M. Evaluating Reflective Writing in Pre-Service Teachers… 2023.

(2). Scoupe R., Delnoij L., Beausaert S. Reflective Practice among Pre-Service Teachers… 2024.

(3). Karim A., Amin F., Amin E.U. Pre-service TESOL Teachers’ Professional-Awareness… 2024.

(4). Gràcia M., et al. A Reflective Teacher Development Programme… 2025.

(5). Traga Philippakos Z.A., Sipitanos K. Pre-Service Teachers’ Preparation, 2025.

(6). Rogge T., Herzig B. Enhancing Pre-Service Teachers’ Reflective Competenc, 2025.

(7). Tikhonova N.V. «The Use of Digital Portfolio to Assess the Student Teachers’ Professional Skills», Kazan Linguistic Journal, 2021.

(8). E-portfolios as authentic assessment in pre-service teacher education (2025). (link.springer.com [4])

Mamarayimova Dildora Baxtiyarovna (Termiz davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Fakultetlararo chet tillari” kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TURIZM SOHASI TALABALARINING INGLIZ TILI LEKSIKASINI O‘QITISHDA INTERFERENSIYANING ROLI

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada turizm sohasi talabalariga ingliz tili leksikasini o‘qitish jarayonida interferensiyaning roli o‘rganiladi. Interferensiya ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan lingvistik hodisa bo‘lib, u so‘zlarni o‘zlashtirish jarayoniga ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqotda interferensiyaning leksik o‘zlashtirishdagi xatoliklar, ularni oldini olish yo‘llari hamda samarali o‘qitish metodlari tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** interferensiya, leksika, ingliz tili, turizm talabalari, o‘qitish metodikasi, ona tili ta’siri, til o‘zlashtirish, xatoliklar, kommunikativ kompetensiya.*

РОЛЬ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ЛЕКСИКЕ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТОВ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СФЕРЫ

***Аннотация.** В данной статье рассматривается роль интерференции в процессе обучения лексике английского языка студентов туристической сферы. Интерференция представляет собой лингвистическое явление, возникающее в результате взаимодействия родного и иностранного языков, и может оказывать как положительное, так и отрицательное влияние на процесс усвоения лексики. В исследовании анализируются лексические ошибки, возникающие под влиянием интерференции, пути их предотвращения, а также эффективные методы обучения.*

***Ключевые слова:** интерференция, лексика, английский язык, студенты туризма, методика обучения, влияние родного языка, усвоение языка, ошибки, коммуникативная компетенция.*

THE ROLE OF INTERFERENCE IN TEACHING ENGLISH VOCABULARY TO TOURISM STUDENTS

***Annotation.** This article examines the role of interference in teaching English vocabulary to students of the tourism field. Interference is a linguistic phenomenon that occurs as a result of interaction between the mother tongue and a foreign language, and it can have both positive and negative effects on the process of vocabulary acquisition. The study analyzes lexical errors caused by interference, ways to prevent them, and effective teaching methods.*

***Keywords:** interference, vocabulary, English language, tourism students, teaching methodology, mother tongue influence, language acquisition, errors, communicative competence*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasi mutaxassislarining chet tillarini, xususan ingliz tilini mukammal bilishi katta ahamiyatga ega. Ingliz tili turizm sohasida xalqaro muloqot vositasi sifa-

tida keng qo‘llaniladi. Shu sababli talabalar ushbu tilning leksik birliklarini samarali o‘zlashtirishlari zarur. Biroq o‘qish jarayonida ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, ya’ni, interferensiya holati yuzaga keladi. Interferensiya ba’zan so‘zlarni tez o‘zlashtirishga yordam bersa, ba’zan esa xatoliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu bois ushbu hodisani pedagogik nuqtayi nazardan, o‘rganish va uni to‘g‘ri boshqarish muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada interferensiyaning turizm sohasi talabalarining ingliz tili leksikasini o‘rganish jarayonidagi o‘rni va uning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda turizm sohasi talabalariga ingliz tili leksikasini o‘qitish jarayonida interferensiyaning ta’sirini o‘rganish uchun nazariy va amaliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodlari sifatida kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish hamda pedagogik tajriba natijalarini umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Shuningdek, talabalar nutqidagi leksik xatoliklar interferensiya nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlilida mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari o‘rganildi. V.V.Vinogradov va L.S. Vigotskiy kabi olimlarning til o‘zlashtirish va psixolingvistika bo‘yicha qarashlari interferensiya hodisasini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy metodik qo‘llanmalarda chet tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv va leksik kompetensiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interferensiya hodisasini hisobga olgan holda o‘qitish metodlarini to‘g‘ri tanlash talabalarning ingliz tili leksikasini samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi [1].

Turizm sohasi talabalariga ingliz tili leksikasini o‘qitish jarayoni zamonaviy ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Chunki turizm sohasida ishlaydigan mutaxassislar xalqaro mijozlar bilan bevosita muloqotga kirishadi va ularning kasbiy kompetensiyasi ko‘p jihatdan ingliz tilini bilish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli leksik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish ta’lim jarayonining asosiy vazifalaridan biridir. Biroq bu jarayonda interferensiya hodisasi sezilarli rol o‘ynaydi va u talabalar tomonidan so‘zlarni o‘zlashtirishda turli qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Interferensiya ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan lingvistik hodisa bo‘lib, u o‘quvchilarning nutqida xatoliklar paydo bo‘lishiga olib keladi. Turizm yo‘nalishidagi talabalar uchun bu holat, ayniqsa, dolzarb, chunki ular, ko‘pincha, o‘zbek yoki rus tilidagi leksik va grammatik tuzilmalarni ingliz tiliga bevosita ko‘chirib ishlatishga harakat qiladi. Natijada noto‘g‘ri so‘z tanlash, ma’noni buzib ifodalash yoki noaniq kommunikativ holatlar yuzaga keladi. Masalan, so‘zma-so‘z tarjima qilish natijasida “make excursion” o‘rniga “do excursion” kabi xatoliklar paydo bo‘lishi mumkin [2].

Leksik interferensiyaning asosiy sababi talabalar ongida mavjud bo‘lgan ona tilidagi tayyor nutq modellari hisoblanadi. O‘quvchi yangi inglizcha so‘zni o‘rganayotganda uni avtomatik ravishda ona tilidagi ekvivalenti bilan bog‘laydi. Agar bu bog‘lanish noto‘g‘ri shakllansa, keyinchalik, u mustahkam xatolik sifatida mustahkamlanib qoladi. Shu sababli interferensiya faqat til o‘rganish jarayonidagi vaqtinchalik holat emas, balki tizimli pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Turizm sohasida interferensiyaning yana bir ko‘rinishi terminologik xatoliklardir. Masalan, “reservetion”, “booking”, “tour package”, “itinerary” kabi atamalarni noto‘g‘ri qo‘llash xizmat ko‘rsatish jarayonida tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Talabalar, ko‘pincha, ushbu so‘zlarni ona tilidagi umumiy ma’noga asoslanib ishlatadi, bu esa kasbiy kommunikatsiyada noaniqlikni yuzaga keltiradi. Shu bois leksik birliklarni kontekst asosida o‘rgatish juda muhimdir [3].

Interferensiyaning salbiy ta’sirini kamaytirish uchun kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish samarali hisoblanadi. Bu yondashuvda talabalar real hayotga yaqin vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanadi, masalan, mehmonxona bron qilish, sayyohlarni kutib olish yoki ekskursiya tashkil qilish kabi rolli o‘yinlar orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bunday mashg‘ulotlar talabalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilishdan uzoqlashtiradi va ularni inglizcha fikrlashga o‘rgatadi [8].

Leksik interferensiyani kamaytirishda kontrastiv tahlil usuli ham muhim ahamiyatga ega. Bu usulda ona tili va ingliz tili o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlar taqqoslanadi. Masalan, so‘z birikmalari, fe’l birikmalari va iboralar solishtiriladi. Natijada talabalar qaysi holatlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish mumkin emasligini tushunib yetadi. Bu esa xatoliklarning oldini olishga yordam beradi.

O‘qitish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish ham interferensiyani kamaytirishda samarali hisoblanadi. Audio va videomateriallar orqali talabalar to‘g‘ri talaffuz va tabiiy nutq namunalarini eshitadi. Bu esa ularning leksik birliklarni faqat yozma shaklda emas, balki kontekstual holatda o‘zlashtirishiga yordam beradi. Ayniqsa, turizm sohasi uchun bu juda muhim, chunki real muloqot tezkor va aniq nutqni talab qiladi. O‘qituvchi roli ham juda muhimdir. O‘qituvchi talabalar nutqidagi interferensiya xatolarini doimiy kuzatib borishi va ularni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishi kerak. Xatolarni darhol tuzatish emas, balki ularni

tushuntirish va qayta ishlashga yo‘naltirish samaraliroq hisoblanadi. Bu yondashuv talabalarni qo‘rqmasdan gapirishga undaydi va ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi [4].

Individual yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Har bir talabaning til o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli interferensiya darajasi ham har xil bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi differensial topshiriqlar berishi, kuchli va zaif talabalar uchun alohida mashqlar tizimini ishlab chiqishi lozim. Bu esa o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Interferensiya turizm sohasi talabalarining ingliz tili leksikasini o‘zlashtirish jarayonida muhim omil hisoblanadi. U, bir tomondan, til o‘rganishga to‘sqinlik qilsa, ikkinchi tomondan, to‘g‘ri yondashuv orqali ijobiy natijaga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli o‘qitish jarayonida zamonaviy metodlar, kommunikativ yondashuv va amaliy mashg‘ulotlardan samarali foydalanish zarur. Faqat shundagina, talabalar ingliz tilini erkin va to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi [7].

Interferensiya hodisasini tahlil qilishda psixolingvistik omillar ham muhim o‘rin tutadi. Talabalar yangi inglizcha so‘zlarni o‘rganayotganda ularni ona tilidagi mavjud bilimlar tizimi orqali qabul qiladi. Bu jarayonda miya avtomatik ravishda o‘xshash ma’noli yoki shakldosh so‘zlarni bog‘lashga harakat qiladi. Natijada noto‘g‘ri assotsiatsiyalar shakllanib, leksik xatoliklar yuzaga keladi. Ayniqsa, turizm terminologiyasida bu holat tez-tez kuzatiladi, chunki ko‘plab so‘zlar kundalik tilga nisbatan maxsus ma’noga ega bo‘ladi [5].

Turizm sohasida ingliz tili leksikasini o‘qitishda interferensiyaning yana bir muhim jihati bu madaniy interferensiyadir. Har bir til faqat so‘zlar majmuasi emas, balki madaniyatni ham aks ettiradi. Talabalar ba’zan ona tilidagi madaniy tushunchalarni ingliz tiliga to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chiradi, bu esa kommunikativ noaniqlikni keltirib chiqaradi. Masalan, mehmondo‘stlik, xizmat ko‘rsatish odoblari yoki muloqot uslublaridagi farqlar noto‘g‘ri ifodalarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli til o‘rgatishda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish juda muhimdir. Interferensiya darajasi talabalarning til o‘rganish tajribasiga ham bog‘liq. Boshlang‘ich bosqichdagi talabalar ko‘proq ona tiliga tayanadi, bu esa interferensiyaning kuchli bo‘lishiga olib keladi. O‘rta va yuqori darajadagi talabalar esa asta-sekin ingliz tilida fikrlashga o‘rganadi va interferensiya kamayadi. Bu jarayonni tezlashtirish uchun muntazam mashqlar, dialoglar va real kommunikativ vaziyatlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘quv jarayonida leksik interferensiyani kamaytirish uchun so‘zlarni guruhlash va semantik maydonlar asosida o‘qitish ham samarali usullardan biridir. Masalan, “transport”, “accommodation”, “tourism services” kabi mavzular bo‘yicha so‘zlar alohida bloklarda o‘rgatiladi. Bu yondashuv talabaga so‘zlarni kontekstda eslab qolishga yordam beradi va ularni alohida tarjima qilish odatini kamaytiradi.Iteraktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ham interferensiyani kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Onlayn platformalar, mobil ilovalar va virtual simulatsiyalar orqali talabalar real turistik vaziyatlarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning lug‘aviy boyligini oshiradi va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi [5]. Masalan, mehmonxonada mijoz bilan suhbat, aeroportda yo‘lovchini kutib olish yoki sayohatni rejalashtirish kabi vaziyatlar modellashtirilishi mumkin. O‘qituvchi tomonidan beriladigan lingvistik feedback (tuzatish va izohlar) ham juda muhimdir. Talaba xato qilganida uni faqat tuzatish emas, balki nima uchun xato bo‘lganini tushuntirish kerak. Bu yondashuv talabaning xatoni qayta takrorlash ehtimolini kamaytiradi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi. Interferensiya nafaqat to‘siq, balki to‘g‘ri boshqarilganda o‘quv jarayonini chuqurlashtiruvchi omil ham bo‘lishi mumkin. Agar o‘qituvchi ona tili va ingliz tili o‘rtasidagi farqlarni aniq tushuntira olsa, talabalar tilni tezroq va to‘g‘ri o‘zlashtiradi. Shu sababli zamonaviy pedagogik yondashuvlar interferensiyani inkor etmaydi, balki uni boshqarish va undan samarali foydalanishga asoslanadi [6]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, turizm sohasi talabalariga ingliz tili leksikasini o‘qitish jarayonida interferensiya muhim lingvistik va pedagogik omil hisoblanadi. U ona tili va chet tili o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga kelib, talabalar nutqida turli leksik xatoliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, to‘g‘ri yondashuv va samarali metodlar orqali interferensiyaning salbiy ta’sirini kamaytirish va uni o‘quv jarayonida foydali vositaga aylantirish mumkin. Kommunikativ yondashuv, kontrastiv tahlil, semantik guruhlash hamda interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish talabalar tomonidan ingliz tili leksikasini samarali o‘zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘qituvchining doimiy nazorati va to‘g‘ri pedagogik feedback berishi interferensiya xatolarini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.Interferensiyani inkor etish emas, balki uni to‘g‘ri boshqarish va ilmiy asosda yo‘naltirish zamonaviy til o‘qitish metodikasining asosiy talablaridan biridir. Bu esa turizm sohasi talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ularni xalqaro mehnat bozoriga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Выготский Л. С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999.

(2). Виноградов В. В. Введение в языкознание. – Москва: Высшая школа, 2001.

(3). Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.

(4). Harmer J. The Practice of English Language Teaching. 5th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2015.

(5). Thornbury S. How to Teach Vocabulary. – Harlow: Longman (Pearson Education Limited), 2002.

(6). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume with New Descriptors. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020.

(7). Jurabekova X. Talabalar kommunikativ kompetentligini orttirishda rus tilining lisoniy xususiyatlari «ACTA NUUz». 2024, т. 1, №.1, с. 258–261.

(8). Madaminovna J.X. (2023). The Role of Oral and Written Speech in the Development of Communicative Competence. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(3), 40–45. https://doi.org/10.51699/cajlpc.v4i3.756

Najmiddinova Oliya Muhiddin qizi (Guliston davlat Pedagogika instituti “Xorijiy tillar” kafedrasi stajyor o‘qituvchisi; e-mail: lili54najmiddinova@gmail.com)

CURRICULUM DESIGN: TOWARD MEANINGFUL AND HOLISTIC LEARNING

Annotation. *The article reexamines the traditional concept of curriculum as a fixed body of knowledge and skills to be taught in schools. However, such a definition fails to show the nature of true learning. The idea of a proper curriculum that oversees a dynamic process of learning is thoroughly discussed throughout the paper. Qualitative, theory-based analysis, as well as empirical data, demonstrates the key components of meaningful education, that is, experiential learning, real-life application, and holistic experience. Research and analyses suggest that experiential and student-centered approaches significantly improve learning outcomes and the common development of students. Ultimately, an effective curriculum should go beyond content delivery while focusing on fostering deep understanding, independence, and real-world competencies necessary for the modern world.*

Keywords: *curriculum design, experiential learning, holistic education, meaningful learning, student development, 21st-century skills.*

O‘QUV DASTURINI LOYIHALASH: MAZMUNLI VA YAXLIT TA’LIM SARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quv dasturining maktablarda o‘qitilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarning qat’iy majmui sifatidagi an’anaviy talqini qayta ko‘rib chiqiladi. Biroq bunday ta’rif haqiqiy ta’limning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Maqolada ta’limning dinamik jarayonini boshqaruvchi samarali o‘quv dasturi konsepsiyasi atroflicha muhokama qilinadi. Sifat jihatidan, nazariy tahlil hamda empirik ma’lumotlar mazmunli ta’limning asosiy tarkibiy qismlarini, ya’ni tajribaga asoslangan o‘qitish, bilimlarni real hayotda qo‘llash va yaxlit ta’limiy tajribani namoyon etadi. Tadqiqotlar va tahlillar natijalari tajribaviy hamda o‘quvchi markazli yondashuvlar ta’lim natijalarini va o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatadi. Pirovardida samarali o‘quv dasturi faqatgina mazmunni yetkazish bilan cheklanib qolmasligi, balki zamonaviy dunyoda zarur bo‘lgan chuqur tushunish, mustaqillik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.*

Kalit so‘zlar: *o‘quv dasturini loyihalash, tajribaga asoslangan ta’lim, yaxlit ta’lim, mazmunli ta’lim, o‘quvchi rivojlanishi, XXI asr ko‘nikmalari.*

РАЗРАБОТКА УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ: К ОСМЫСЛЕННОМУ И ЦЕЛОСТНОМУ ОБУЧЕНИЮ

Аннотация. *В данной статье переосмысливается традиционное понимание учебной программы как фиксированного набора знаний и навыков, которые должны преподаваться в школах. Однако такое определение не отражает сущности подлинного обучения. В работе подробно рассматривается концепция эффективной учебной программы, которая направляет динамичный процесс обучения. Качественный теоретический анализ, а также эмпирические данные демонстрируют ключевые компоненты осмысленного образования, а именно: обучение через опыт, применение знаний в реальной жизни и целостный образовательный опыт. Результаты исследований и проведённого анализа показывают, что практико-ориентированные и ориентированные на учащегося подходы значительно улучшают результаты обучения и всестороннее развитие обучающихся. В конечном итоге эффективная учебная программа должна выходить за рамки простой передачи*